

## DUTOR CHOLG'USINI TARIXIY TAKOMULLASHUV JARAYONLARI VA UNING AKUSTIK XUSUSIYATLARI

Termiz shahar 2-sonli bolalar musiqa va san'at maktabi o'qituvchisi.  
**Qurbanova Durdona Baxtiyor qizi.**

**Anotatsiya:** Ushbu mavzuning mazmunini yoritib berish uchun, bolalar musiqa va san'at maktablari dutor sinfi o'quvchilarining ijro mahoratlarini takomillashtirish jarayonida dutor cholg'usi zarblarni o'quvchining yoshiga va qabul qilish jarayonini musiqa maktablari o'rtasida solishtirish. Musiqa maktablarida dutor cholg'usining akustikasini mashqlar yordamida ochib berish. Keyingi bosqichda esa pazitsiya va applikaturani qo'yish ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Cholg'uda tovush chiqarish va zarblar haqida ma'lumot berilgan. Bularni puxta egallagandan so'ng albatta musiqiy asarlar bilan ishlashga amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Mustaqil o'z ustida ishlash orqali o'quvchi mahoratini oshirib borishni yo'lga qo'yilgan. Bu ishni musiqa va san'at maktablarida qo'llash mumkin

**KIRISH:** Dutor juda qadimiy musiqa asbobi, uning paydo bo'lish tarixiga kelsak, eramizdan avvalgi asrlarga borib taqaladi. Dutor tojikcha so'z bo'lib ikki tor degan ma'noni bildiradi. Dutor asr-asrlardan o'zbek xalqiga madaniy xizmat qilib kelayotgan milliy musiqa cholg'ulardan biri hisoblanadi. Bu cholg'u faqat o'zbek xalqining cholg'usi bo'lmay, balki uni qardosh tojik, uyg'ur, qoraqalpoq, turkman xalqlari ham o'zlarining sevimli cholg'usi deb hisoblashadi.

**Asosiy qism: Dutor** — noksimon korpusli, dastasi uzun ikki torli cholg'u asbobi. Dutoring umumiyligi 1150 mm dan 1200 mm gacha bo'ladi. Kosaxonasi alohida egma taxtacha (qovurg'a) yopishtirib ishlanadi, qopqog'i yupqa, tekis, ba'zida unda rezonator teshikchalar bo'ladi. Dastasining niqa tomoni lo'la qilib ishlanadi, yuqorisi ingichka, bo'g'izga qarab kengayib boradi. Dastaga 13-14 parda bog'lanadi. Uchiga ikkita - vertikal va Horizontal quloq o'rnatiladi. Asbobning barcha qismlari tut yog'ochidan tayyorlanadi va ko'pincha suyak hamda sadaf bilan bezatiladi. Tori ipak eshilgan va bir uchi kosaxona ostidagi ilgakka (bo'rtiqqa), ikkinchisi esa quloqlarga bog'lanadi. Qopqoqda torlar kichkina yog'och xarak ustidan o'tadi. Torlari ko'pincha kvarta (Tanova sozi)ga, ba'zan unison (Qo'shtor sozi) va kvanta (Munojot sozi)ga sozlanadi. Tovushqator past pardada xromatik (nim pardada), baland pardada esa diatonik bo'ladi.

Cholg'u (diapazoni bir yarim oktavaga teng. Dutorning uncha baland bo'Imagan lovushiga o'ng qo'l tirnoqlari qopqoqqa tegishidan hosil bo'Igan tovush (sliovqin) qo'shilib eshitiladi. Dutor kvarta - kvinta, oktava va unisonga ham sozlanadi. Dutorga o'xshash cholg'uni qozoqlarda "do'mbira", qirg'izlarda "qo'buz deb ataladi.

Dutorlar to'qiz tuzilishga ega:

1. Dastasi
2. Kosasi
3. Asosiy harak
4. Shayton harak
5. Quloqlari
6. Pardalari
7. Tiqn ya'ni simni ko'taruvchi
8. Ovoz joyi
9. Simlari ya'ni lya va mi

**Dutor** - o'zbek xalqining eng keng tarqalgan torli cholg'ularidan biri. Dutor -yakkanavoz, qo'shiqchilarga jo'r bo'luvchi va ansambl cholg'u asbobi sifatida qo'llaniladi. Unda turli janrga oid qo'shiqlar, raqs kuylari hamda cholg'u (instrumental) pyesalar, shu jumladan maqomlaming ayrim yo'llari ijro etiladi. Dutor adabiy manbalarda Temuriylar davridan (XIV asr oxiri — XVI asr boshi) boshlab tilga olingan. 1920-yillar oxiri, 1930-yillar boshida dutorni takomillashtirishga o'tildi. Konstruktorlar (U. Zufarov va boshqalar) birinchi navbatda cholg'u tovushini yanada kuchaytirish haqida o'ylay boshlashdi, ayni mahalda dutorning parda bog'lamlari, uzun dastasi, sozlanishi va torlar tovushqatori o'zgarishsiz qoldirildi. Dutorni takomillashtirish va bu cholg'u oilasini yaratish ishlari 1930- yillarning oxirida A.I. Petrosyan va S.Y. Didenko tomonidan boshlandi.

Dutorda xromatik tovushqatorli konstruksiyada bog'lama pardalar doimiy, o'yma pardalar bilan almashtirildi, tashqi jihatdan xalq cholg'usidan birmuncha bo'lakcha ko'rinish kasb etdi. Keyinchalik tipik namuna asosida prima, sekunda, alt, bas va kontrabas dutorlar yaratildi. Bas va kontrabas dutorlar qattiq charm noxun bilan chalinadi. Dutorlar oilasidan hozirgi o'zbek xalq cholg'u ansambllari va orkestrlarida foydalilaniladi. A.I. Petrosyans va S.Y. Didenko orkestr dutorlardan tashqari xalq dutori kabi sozlanadigan va diapazonga ega kamer dutorni konstruksiyalashdi. Bu dutor (keyinchalik modernizatsiya qilinib) xalq musiqa amaliyotida yakkanavoz va ansambl cholg'usi sifatida tarqaldi. (1.3.2-rasm.)

*An'anaviy dutorni sozlash va uning tovushqatori*

*Orkestr dutorlarini sozlash va ularning diapazoni*

Prima sekunda Alt Bas

### DUTORNING YASALISHI

Dutorlar asosan ikki xil turda yasaladi. Qadim o'tmishda sozandalarimizga xizmat qilib kelayotgan dutor dastasiga ichak yoki ipakdan eshilgan pardalar bog'langan diatonik tovushqatorda (mumtoz kuylar va maqom yo'llari ijro etilardi) bog'langan va bu dutorlarni xalq dutorlari deyilgan.

Dutor yasalishi jihatdan ikki qismdan iborat (dasta va kosa) bo'lib, bularni birlashtiruvchi qismini «**Bug'iz**» deb ataladi. Dutorning kosasi o'yma va qovurg'achalarning birlashganidan yasalishi mumkin. «**O'yma dutor**» Samarcand, Xorazm, Tojikiston va Turkmanistonda qo'llanilib, bir bo'lak tut yog'ochidan o'yib ishlanadi. Qobirg'ali dutor ham tut yog'ochidan ishlanib, 8-10 bo'lak yupqa taxtachani egib birlashtiriladi. Kosa ustiga yopishtiriladigan qopqoq ham tut yog'ochidan tayyorlanadi. Odatda dutor yasaladigan tut yog'ochi soyada quritiladi. Dutorning umumiyligi 1200-1300 mm, ayrim joylarda esa 750-800 mmni tashkil etadi.

Dutor juda qadimiyligi musiqa asbobi uning paydo bo'lishning tarixiga kelsa keramizdan avvalgi asrlarga borib taqaladi. Dutorlar tut, o'rik, yong'oq, archa yog'ochlaridan yasaladi. Dutorlar yasalishi jihatdan ikki qismdan iborat yani, dasta va kosa bo'lib, bularning birlashtiruvchi qismini esa "bug'iz" deb ataladi. Dutorlar kosasi o'yma va qovurg'achalarning birlashganidan yasalishi mumkin.

1936-1937- yillarda Toshkentda o'zbek musiqa cholg'ularini takomillashtirish ustaxonasi ochilib, boshqa sozlar qatori nota ilmiga moslashtirilgan yog'och pardali, kapron torli yangi dutorlar ishlab chiqarila boshladi. Hozirgi kunda bu dutorlar malakali o'qituvchilarimiz tomonidan yosh dutorlarchilarga ijrochilikdan saboq berib kelmoqda.

Dutorlar oilasi 6-ta:

1. Prima
2. Sekunda
3. Alt
4. Tenor
5. Bas

## 6. Kontrabas

**Prima** - dutorning kichraytirilgan bir turi hisoblanadi. Buning qopqog'i tut o'rnida archa daraxtidan qilinadi. Ipak torlari o'rniga ichak tor tortiladi. Pardalar dastasini o'yib xromatik holda doimiy o'matilgan. Torlari kvarta va unisonga sozlanadi. Birinchi oktavadagi "mi va lya "ga sozlanib, notalar skripka kalitida yoziladi. Notalar eshitilishiga nisbatdan oktava yuqorida yoziladi. Hajmi kichik oktavadagi mi-lyadan birinchi oktavadagi sol va ikkinchi oktavadagi do-ga qadar. Bu asbob, dutorlar oilasiga mansub bo'lib, ushbu cholg'u asbobining eng baland tovushga ega. Applikatura jihatidan rubob prima, g'ijjak asboblariga o'xshab ijro etiladi. Masalan pissikato, bidratma, stakatto va h.q.

Dutor primaning umumiyo ovoz hajmi birinchi oktavadagi mi tovushidan uchinchi oktavadagi lya tovushiga qadar bo'lib, orkestrda solo va jo'rnavoz bilan ijro etiladi.

**Dutor sekunda** - yangi ishlangan dutorlar oilasiga mansub cholg'usi, ovoz jihatidan o'rtacha registrda uning ham torlari ikki ipak tordan iborat bo'lib, kvarta oralig'ida sozlanadi. Tashqi ko'rinishi dutor primadan bir oz kattaroq qilib ishlangan, ya'ni dutorlarning kosasi bir hil, lekin dastasining uzunligi har hil bo'lib ishlangan. Lya va re ga sozlanib, umumiyo ovoz hajmi kichik oktavadagi lya tovushidan ikkinchi oktava re tovushigacha sozlanadi.

**Dutor alt** - ikki tor degan ma'noni anglatadi. Dutor asrdan- asrga o'tib, o'zbek xalqiga madaniy xizmat qilib kelayotgan milliy musiqa cholg'ularidan biri hisoblanadi. Bu cholg'u faqat o'zbek xalqining cholg'usi bo'lmay, balki bizni qardosh tojik, uyg'ur, qoraqolpoq, turkman xalqlarining sevimli cholg'usi hisoblanadi. «Natijada 2003-yil "Ta'lif hamma uchun" dasturining Milliy rejasi ishlab chiqildi. "Ta'lif hamma uchun" dasturining Milliy rejasi 2000- yilgi Dakar shartnomalari doirasida ishlab chiqilgan bo'lib, siyosatchilar, ta'lif tizimi, vazirlik va idoralar rahbarlari, pedagoglar, jamoat arboblari, O'zbekiston Respublikasida uzlusiz ta'lif tizimini rivojlantirish muammolari bilan qiziquvchi barcha shaxslar uchun mo'ljallangan. "Ta'lif hamma uchun" Milliy harakat rejasini ro'yobga chiqarish bo'yicha yaqin davrlar (2001-2015- yillar)ga mo'ljallangan tadbirlar belgilanib, "Ta'lif hamma uchun milliy harakati hamda umumiyo o'rta ta'lif maqsad va vazifalarini ro'yobga chiqarish siyosati" deb nom olgan VI bandining IX yo'nalishi Maxsus ta'limga yo'naltirilgan bo'lib, unda maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lif muassasalariga jalb etishda qonunchilik va me'yoriy bazani takomillashtarish, maktabgacha va boshlang'ich ta'lif-tarbiya, maxsus ta'lif mazmunini, inklyuziv ta'lif jarayonining o'quv-uslubiy tomonini takomillashtirish, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish,

inklyuziv ta'limning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, inklyuziv ta'limni joriy etishda targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish va boshqa masalalar qayd etilgan". «Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi yetti yo'nalishdan iborat etib belgilandi. Bu – bejiz emas. Zero, ajdodlarimiz yetti raqamini baxtsaodat va omad keltiradigan, ezgu niyatni ro'yobga chiqaradigan xosiyatli timsol, deb bilganlar »<sup>41</sup>. Mashhur dutorchilar: H. A. Abdurasulov, Abduoat Vohobov, Davlatoxun Qodirov, Yunus Rajabiylar dutor chalganlarida kishilar og'ir bir sukunatga cho'milib, olam-olam ma'noli hissiyotlar ummoniga botardilar. Ulardan keyin esa Shokirjon sartarosh, Orif Qosimov, Zokirjon Obidov, To'xtamurod Rasulov va boshqalar davom ettirganlar. Hozirgi kunda esa xizmat qilib kelayotgan dutorchilar G'ulom Qosimov, Malika Ziyaeva, Obidjon Odilov, Sulton Qosimov va boshqalar.

**Dutor Tenor** - Ushbu dutor rekonstruksiya qilingan cholg'u bo'lib, o'rta va pastki registrlarda ovoz hosil qiladi. Dutor tenor sol kalitida yoziladi va yozilganlardan bir oktava past eshitiladi. Unda ikkita tor bo'lib (re va sol) kvarta va kvinta intervaliga sozlanadi.

**Dutor bas** - bu cholg'u eng birinchi bo'lib 1948-yil Toshkent Davlat konservatoriyasida yasalgan. Dutor bas asbobi o'zbek xalq cholg'u ansambl tarkibida bas tovushini mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Ushbu asbobni sozanda o'tirgan holda ijo etadi, dutor bas-dutorning katta qilib ishlangan turi. Dutor bas kvinta intervaliga sozlanadi, uning 4-ta tori mavjud, bular to'rtinchi "do", uchinchi "sol", ikkinchi "re", birinchi "lya" lya tori ichakdan qilinadi qolganlari esa metallardan yasalgan. Notalar eshitilishi bo'yicha bas kalitida yoziladi, ovoz hajmi katta oktavadagi do dan birinchi oktavadagi solga qadar. Bu cholg'ularda ijrochilarni tayyorlash va tarbiyalashda dotsent A. K. Nazarovning xizmatlari kattadir. A. Nazarov ushu sinfni tugatib, hozirgi kunda 1960-yildan buyon ushu cholg'udan dars berib kelmoqda.

**Dutor kontrabas** - bu chog'u dutorlar oilasining eng yirik shakli ya'ni bu asbob dutor basdan ancha kattaroq qilib ishlangan variantidir. Dutor kontrabasning kosasi katta –katta "qobirg'acha"lardan iborat, dastasi dutor bas asbobidan uzunroq bo'ladi, quloqlari esa temir metalldan ishlanib, qattiq tortilib turush vazifasini bajaradi. Bu asbobning torlari juda qalin bo'lib, orkestrda yo'g'on bas tovushi bilan farq qiladi. Dutor basning kosasiga maxsus tayyorlangan tayoqcha o'rnatilib o'tirgan holda ijo etiladi.

<sup>41</sup> Xolmurodova Nafisa Tolibjonovna "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar ilmiy va ilmiy texnik onlayn konferensiya yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategik yo'li " Osiyo Xalqaro Universiteti, Magistratura 1-kurs talabasi, Pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabasi

“Dutor” (ikkita torli) atamasining kelib chiqishiga sozni shaklan o‘xhash torli sozlardan farqlash asosiy sabab bo‘lgan. Dutorga o‘xhash cholg‘ular Ozarbayjonga “Saz” gruzinlarda “Panduri”, Qirqizlarda “Komuz”, Qozoqlarda “Dombra” va Xitoyliklarda “Pipa” kabi atamalar bilan sozandachilik amaliyotida qo‘llanilgan.

Najmiddin Kavkabiyning “Ilm advor” deb nomlangan risolasida ham yetuk dutorchisozandalarning nomlari ko‘rsatib o‘tilgan. Turkiston o‘lkasining taniqli tadqiqotchisi V.I.Mussalskiyning ta’riflashicha: musiqa sozlari – dutor va qo‘bizni deyarli barcha xonadonlarda uchratish mumkin edi. Bu xulosa shunday dalolat beradiki, xalq madaniy-ma’naviy hayotida oilaviy musiqachilik dutor vositasida ham qadimdan amaliyotga ko‘chgan. Har bir o‘zbek xonadonining to‘rida sozlardan hech bo‘lmasa, dutor albatta, osig‘lik turgan. Negaki, bir kuni kimdir uni chalib, ko‘pchilikni xursand etishi nazarda tutilgan. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, dutor sozi yanada ommalashadi, ijrochilik san’ati yanada rivojlanadi. O‘zbeklar, tojiklar va turkmanlarning eng sevimli cholg‘ularidan biriga aylanadi. Binobarin, O‘zbekistonning turli dahalarida mashhur dutor ijrochilari shakllana boradi.

### XULOSA

1. Har qanday jamiyatning istiqboli uning ta’lim – tarbiya maqomiga, yangicha ta’lim tizimi tarkibi va mohiyatiga, teran ma’rifiy madaniyatiga bog‘liq. Zotan, ta’lim ma’rifati darajasigina jamiyatning, davlat va millatning kelajagini ta’minlaydigan, dunyo uzra nufuzini belgilaydigan yagona omil hisoblanadi. O‘zbekiston istiqlolining dastlabki kunlaridanoq ana shu haqiqatni o‘z mustaqil taraqqiyot yo‘lining istiqboli deb bildi.

2. Jamiyat hayotining barcha jabhalaridagi amalga oshiriladigan tub o‘zgarishlarning negizi milliy, ma’rifiy an’analaramizning zaminini yanada mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish orqali dunyoning zamonaviy ilg‘or o‘qitish usullari hamda ularni boyitishga asosiy urg‘u berildi.

3. Bu esa o‘z navbatida ta’lim tizimining moddiy texnika hamda axborot bazasini mustahkamlash, o‘quv – tarbiya jarayonini yuqori sifatli o‘quv adabiyotlari va ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’milanishini taqozo etadi.

4. Shu sababli ham pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida ularning kasb mahoratini ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida shakllantirish bugungi kunning muhim talabi sifatida qo‘ymoqda.

5. Bugungi kunda butun dunyoda integratsiya jarayonlari, xilma-xil madaniyat almashinuvlari avj olib bormoqda. Shu sababdan professorlarimiz tomonidan jonbozlk ko‘rsatilib, o‘z oldiga maqsad va vazifalarni qo‘yib 12

bosqichli teng temperatsiyalashgan cholg'ularning takomillashuvini yo'lga qo'yib hamda ijodiy tadqiqot yondoshuvlarini olib bordi.

6. Bu o'z-o'zidan xalq cholg'ulari sastavida rangbaranglilik, jamoa tarkibini boyib borishi, dutor cholg'u tuzilmalarinig partiturniy holatida notalar asosida cholg'ular takomillashuvi natijasida uyg'unlashuvi o'tmishimizdan bugunimizgacha o'zining samaradorligini berib keldi. Ushbu tartibda xalq cholg'ulari orasida dutor cholgu'sining o'rni, musiqa ijrochiligi madaniyatlarining shakillanib borishi natijasida kengayib boyib bordi.

7. Binobarin o'zbek xalq cholg'ulari dutor cholg'u ijrochiligining yangi bir shakillaridan bo'lib, yoshlarning manaviy dunyoqarishi, musiqiy salohiyati, ijodiy erkin fikrashi ko'p ovozli garmonik eshitish qobiliyatlarini his etishga, musiqiy didini estetik tarbiyalab borishga xizmat qilqdi shu bilan birga jamiyatimiz ma'naviy hayotida ham o'zining o'rniga ega bo'lib, umumbashariy madaniyatimizning xazinasiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda.

8. Musiqa maktablarida dutor cholg'usining akustikasini mashqlar yordamida ochib berish. Keyingi bosqichda esa pazitsiya va applikaturani qo'yish ham muhim omillardan biri hisoblanadi.

9. Cholg'uda tovush chiqarish va zarblar haqida ma'lumot berilgan. Bularni puxta egallagandan so'ng albatta musiqiy asarlar bilan ishlashga amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Mustaqil o'z ustida ishlash orqali o'quvchi maxoratini oshirib borishni yo'lga qo'yilgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbek xalq musiqasi, Toshkent, 1-jild, 1955.
2. O'zbek xalq musiqasi, Toshkent, 2-jild, 1957.
3. Abdullayeva S. Zamonaviy azarbajyon musiqa intrumenti. Baku 1984 y
4. A. Fitpat. O'zbek klassik musiqasi va uning tapixi, «Fan» 1993yil.
5. A. I. Petrosyans. Instrumentovedeniye "O'zbekiskiy narodniy instrumenti". T, 1951.
6. T. Vizgo, A. Petrosyans Uzbekiskiy orkestr naronix instrumentov. T.1962.
7. Eyxorn A. "musiqiy etnografik materyallari" T,1963.